



ELEKTRON HUKUMAT TIZIMLARI

*Andijon qishloq xo'jaligi va Agrotexnologiyalar instituti
Axborot texnologiyalari va matematika kafedrası
katta o'qituvchisi **Abduraxmonov Odiljon**
meva-savzavotchilik va uzumchilik yo'nalishi
1-bosqich talabasi
Sodiqov Qobiljon Zohidjon o'g'li*

Annotatsiya. Axborot texnologiyalari rivojlanishi va ularni iqtisodiyot sohaslariga joriy etishning hozirgi holati, shuningdek mahalliy dasturiy mahsulotlarning eksport darajasi hali ham pastligicha qolmoqda. Axborot texnologiyalarining raqobatdosh va yuqori unumdorlikka ega tarmog'ini shakllantirish uchun mamlakatning fan va ta'lim sohasidagi salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayapti

Kalit so'zlar: Jamiyat rivojida AKT, elektron hukumat tizimi arxitekturasi, davlat organlarining shaffofligi, yagona identifikator.

Respublikada amal qilayotgan tashkiliy-iqtisodiy sharoit AKT sohasida tez o'sishni namoyish etayotgan xorijiy mamlakatlarda yaratilgan sharoitlarga nisbatan mamlakatning raqobatdoshligi pastligini hisobga olgan holda ushbu sohaning yanada rivojlanishiga yetarli darajada yordam bermayapti.

Har qanday mamlakatga xos bo'lgani kabi O'zbekistonda ham axborotlashgan iqtisodiyotni shakllantirish darajasini zamonaviy AKT ni joriy etish va rivojlantirish, iqtisodiyotga ilmiy-tadqiqotlarni joriy etish ko'rsatkichlari hamda YAIMda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi bilan belgilab berish mumkin bo'ladi. O'zbekistonda axborotlashgan iqtisodiyot bilan bog'liq chuqur ilmiy - tadqiqot ishlari hozirgi vaqtgacha yetarli darajada olib borilmaganligini hisobga olib, mazkur mavzuni o'rganish va izlanishlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

Mazkur yondashuvning asosiy muammosi mamlakatning yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarishida axborot sektorining qo'shgan hissasini aniqlashda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelinishi hisoblanadi. Ikkinchi guruhga ijtimoiy mezonlar kiradi. Ular axborot mahsulotlarini, axborotlashtirish vositalarini ishlab chiqarish hamda axborot xizmatlar ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi ulushini belgilaydi. Uchinchi guruhga axborotlashgan iqtisodiyotni belgilab beradigan, ya'ni



jamiyatda axborot texnologiyalari (AT)ning tarqalishi nuqtai nazaridan ta'rif beruvchi texnologik mezonlar kiradi.

Axborotlashtirish – hududiy taqsimlangan axborot resurslarini birlashtiruvchi telekommunikatsiya infratuzilmasini qurish va rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosat va jarayonlar.

Axborotlashtirish jarayoni:

- axborot texnologiyalari rivojlanishining natijasi;

Axborotlashtirish – bu nafaqat texnologik, balki aholi turmush tarziga sezilarli o'zgartirishlar kiritadigan ijtimoiy va madaniy jarayon hamdir.

Jamiyatni axborotlashtirish – bu jamiyat a'zolarining ishonchli axborotdan to'liq va o'z vaqtida foydalanishlarini ta'minlashga qaratilgan choralar kompleksini ishga tushirishdir, bu yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirish va rivojlantirish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Axborotlashgan jamiyatni tavsiflovchi mezonlar:

- Texnologik: ishlab chiqarishda, muassasalarda, ta'lim tizimida keng qo'llaniladigan axborot texnologiyalari.
- Ijtimoiy: axborot yashash sifatini o'zgartirishning muxim stimulyatori sifatida yuzaga chiqadi, axborotga keng kirishda «axborot ongi» shakllanadi va tasdiqlanadi.
- Iqtisodiy: axborot iqtisodiyotda resurs, xizmat, tovar, qo'shilgan qiymat va bandlik manbai sifatida kalit omilni tashkil etadi.
- Siyosiy: axborot erkinligi siyosiy jarayonlarda turli klasslar va aholi ijtimoiy qatlamlari orasidagi o'sib borayotgan ishtiroki bilan xarakterlanadigan etakchi hisoblanadi.
- Madaniy: axborotning madaniy qiymatini alohida individ va butun jamiyat rivojining manfaatida axborot qimmatini tasdiqlash vositasida belgilash.

ITU-International telecommunication Union. Halqaro elektroaloqa ittifoqi hisoblari bo'yicha oxirgi yilda 350 millijndan ortiq odam internetga ulangan va 2016 yil oxirida butun dunyo aholisining diyarli 53 foizi internentdan foydalanilgan.

Mobil texnologiyalar va hizmatlar avvaldan axborotlashgan jamiyat rivojining kalit omili hisoblanadi, mobil va keng polosali aloqa foydalanuvchilari soni 3 mlrd.ga yaqin.

Mobil keng polosali tarmoqlar ilovalar va servislardan foydalanish imkonini beradi: tezlik oshishda davom etadi, hizmatlarning bahosi pasayadi va AKT yanada ommabop bo'ladi, oxirgi to'rt yilda hizmatlarning bahosi 82 foizga pasaygan.



Yuqori tezlikli aloqa tarmoqlari vositasida global axborot jamiyatiga ko'pdan ko'p odamlar bog'lanmoqdalar, ya'ni, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamiyatni rivojlantirishning eng aktual yo'nalishlaridan biridir.

ITU hisoblari bo'yicha 2016 yil oxirida ko'chuvchi uyali aloqa abonentlari 6,8 mlrd.ga va butun dunyo internet foydalanuvchilari 3,7 mlrd.ga. yetgan.

1. Elektron hukumat axborot tizimlarining arxitekturasi

IT-texnologiyalarning rivojlanishi davlatning taraqqiy o'sishidagi asosiy ko'rsatgichlaridan biri.

Elektron hukumatning arxitekturasi elektron davlat va elektron hukumat arxitekturasining elementlari va ularning o'zaro bog'lanish tamoyillarini belgilovchi siyosatni o'z ichiga oladi.

Arxitektura yondashuvi – davlatni axborotlashtirishdagi markazlashgan boshqaruvga nisbatan innovatsion raqobatchi.

Elektron hukumat loyihalarni amalga oshirishdagi arxitekturaviy tamoyillari:

IT-echimlarning moslashuvchanligi;

IT-echimlarning ko'p jabhalarda qo'llanishi;

Axborotning yuridik kuchi;

IT-echimlarning qulayligi. Nafaqat davlat organlari uchun, balki fuqaro va tadbirkorlik sub'ektlari uchun ham.

Ishlab chiqilayotgan tizimlarning arxitekturasi biznes jarayonlarning avtomatlashtirilishiga qaratilgan. Biznes jarayonlarning keng qo'llanilishi ulkan ko'lamli biznes modellarni joriy etishga imkon beradi.

Foydalanilayotgan texnologiyalar ko'p marotaba qo'llaniladigan va birlashuvchi servislarni ishlatishga imkon beradi.

Elektron hukumat loyihalarini amalga oshirishda integratsiya masalasi juda katta ahamiyatga ega. Integratsiya Arxitekturasi platformalarning birhilligida emas, balki xizmatlarga yo'naltirilgan arxitekturadir.

"Kadrlar" avtomatlashtirilgan tizimi yuridik shaxslar ma'lumotlar bazasi va ma'lumotlar va tasniflagichlar bazasi bilan integrallashgan.

2. “Elektron hukumat” tizimini shakllantirish

Axborot resursi – bu axborot tizimlaridagi (kutubxonalar, arxivlar, fondlar, ma'lumotlar banki va boshqa axborot tizimlari) hujjatlar va hujjatlar massivi.

Har bir davlat uchun axborot resursi energiya zaxiralari, qazilma boyliklar va boshqa manbalar kabi ahamiyatli strategik resurs hisoblanadi.

Axborot resurslari axborot mahsulotlarini yaratish uchun boshlang'ich baza hisoblanadi.



Axborot mahsulotlari insonlarning intellektual faoliyatlari natijasi hisoblanadi va xizmatlar yordamida tarqatiladi.

Hozirgi vaqtda hukumat va uning fuqarosi orasidagi o'zaro ta'sir axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda faol amalga oshib bormoqda.

Zamonaviy huquqiy demokratik davlat "fuqaro-hukumat", "fuqarolik jamiyati - hukumat" o'zaro axborot munosabatlari, axborot manfaatlarining balansi va bu balansni me'yorlarda, avvalambor axborot qonunlarida mustahkamlashga erishishga intiladi.

Hukumat va jamiyat, alohida fuqaroning o'zaro ta'sirini optimallashtirish uchun "elektron davlat" ("elektron hukumat") modelidan faol foydalaniladi.

Elektron hukumatni joriy etish jarayoni uchta bosqichga ajratiladi:

1 bosqich (ommaviylik).

Ushbu bosqichda AKT vositalari kengaytiriladi va tezligi oshiriladi, hukumat organlari statistik axborotlariga fuqarolar, tashkilotlar, korxonalar tomonidan kirish osonlashtiriladi. Bu bosqichni amalga oshirish uchun hukumat organlari o'zlarining Web-saytlarini yaratadilar, bu erda qonuniy va boshqa me'yoriy huquqiy aktlar, kerakli hujjatlar shakllari, statistik va iqtisodiy ma'lumotlar joylashtiriladi. Ushbu bosqichning asosiy elementi axborotlarni operativ yangilash va "yagona oyna" orqali kirishni taqdim etuvchi, davlatning barcha axborot resurslarini integratsiyalovchi hukumat portalining mavjudligi.

2 bosqich (on-line-tranzaksiya).

Davlat tuzilishlari dinamik axborotni taklif etadi. Hukumatning elektron nashriyotgan, ma'lumotlar bazasi, qonuniy hujjatlashtirilgan saytlar yuzaga keladi. Ikkinchi bosqichda davlat xizmatlari (ko'chmas mulk va er maydonlarini qayd qilish, soliq deklaratsiyalarini to'ldirish, ruxsat uchun ariza topshirish) on-line rejimda taqdim etiladi. Ushbu bosqichga o'tish byurokratik protseduralarni optimallashtirish va korrupsiya masshtabini qisqartirishga imkon beradi.

Ushbu bosqichga o'tish hukumat organlariga xizmatlarni elektron shaklda (e-services) aholiga va yuridik shahslarga «yagona oyna» orqali 24/7 shaklida taqdim etishga imkon beradi.

3 bosqich (ishtirok).

Uchinchi bosqichda aholi va firmalarning siyosatchilar va amaldorlar bilan interaktiv o'zaro hamkorligini davlat siyosatini ishlab chiqishning barcha cikllari davomida hukumatning barcha sathlarida ta'minlash yo'li bilan jamiyatni davlat boshqaruvida qatnashishi ta'minlanadi. U normativ va qonuniy aktlar loyihalari



muhokama qilinadigan va turli takliflar akkumulyasiya qilinadigan web-forumlar yordamida amalga oshiriladi.

Ushbu bosqichning to'liq ishga tushishi uchun jamiyat hayoti ishtirokchilari tomonidan ko'p narsalarni amalga oshirish zarur.

Elektron hukumat paydo bo'lgunga qadar

Propiska

Hujjatlar ro'yhati (1 kun)

Davlat rejasidan ma'lumotnoma (2 kun)

Notarial idora (ota-onalar ruhsati) (1 kun)

Propiskadan o'chirish (1 kun)

3 ta blankani to'ldirish (hizmatlar stoli)

Mahalladan ma'lumotnoma

Yangi turar joyga o'tish uchun ariza yozish

3 ta blankani to'ldirish (hizmatlar stoli)


Yangi propiskani olish (2 kun)

Natijada yangi turar joyga o'tish uchun 1 hafta vaqt ketadi.

Propiska olish jarayonining an'anaviy usuli



Elektron hukumat orqali propiska olish



Axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojining jahon tendentsiyalari shuni ko'rsatadiki, vaqt o'tishi bilan elektron davlat boshqaruvi har qanday davlat uchun zaruratga aylanadi, va u qancha tez joriy etila boshlasa, shuncha yaxshi. "Elektron hukumat" davlat boshqaruvining o'rnini egallamaydi, ammo AKTga asoslanib, davlat o'z funktsiyalarini optimallashtirishga axborot to'plashni tezlashtirishga va, qolaversa, hukumat qabul qilayotgan qarorlarga ta'sirko'rsatuvchi sonsiz omillarni hisobga olishga qodir bo'ladi.

Zamonaviy AKTlar davlat tuzilishini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, yangi xizmatlarni rivojlantirish va mahalliy sharoitlardan optimal foydalanish, tabiiy resurslarni iqtisod qilish va atrof muhit muhofazasi uchun ulkan potensialni o'zida jamlagan. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini hayotning barcha jabhalariga joriy qilish bilan bog'liq sodir bo'layotgan keng masshtabli qayta o'zgartirishlar davlat tomonidan barcha manfaatdor mamlakatlar bilan ittifoqda nazorat qilinishi va butun jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

."Axborot-Kommunikatsiya texnologiyalari Qishloq xo'jaligida"-Toshkent,2022

Axborot Komunikatsiya Texnologiyalari-Toshkent,2017

2. O.Abduraxmonov "Development of a structure for implementation of parallel algorithms based on cubic splines in a multiple nuclear processor" International Journal of Engineering and Information Systems //Vol. 5,Issue 5.,Pages: 63-66,2021 y.



- 3.O.Abduraxmonov “Ko‘p yadroli protsessorda kubik bazisli splaynlar asosida parallel algoritmlarni amalga oshirish tuzilmasini ishlab chiqish” Academic Research In Educational Sciences Scientific Journal // Vol.2,Issue3.,Pages: 628-633,2021 y.
- 4.O.Abduraxmonov “Some methods of signals digital operation” International journal for advanced research in science & technology // Vol.10,Issue 06.,Pages: 1-4, 2020 y.
- 5.Abduraxmonov Odiljon Qobulovich: Pandemiya sharoitida “Axborot-kommunikatsion texnologiyalari”dan foydalanib,elektron ta’lim shakliga o‘tishning o‘ziga xos xususiyatlari. “International scientific-online conference on innovation in the modern education system.Washington University in St.Louis.
- 6.Usmanova Mavluda Soyibjon qizi,Karimov Otabek Raximovich,Mamatov Shohruxbek Muhammadjon o‘g‘li “OLIIY TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYARDAN FOYDALANISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI” “XALQ TA’LIMI XODIMLARINI “UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH”GA MOSLASHISH JARAYONINING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI ILMIYAMALIY ANJUMANI 2022-yil 31-oktyabr.
- 7.Usmonova Mavludaxon Soyibjon qizi “TA’LIM MUASSASALARIDA ELEKTRON O‘QUV ADABIYOTLARIDAN FOYDALANISH” INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM VA TADQIQOTLAR JURNALI JOURNAL OF INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH MAY 2023
- 8.Усмонова Мавлудахон Сойибжон қизи, Каримов Отабек Рахимович, Маматов Шохрухбек Муҳаммаджон ўғли “ИҚТИСОДИЁТДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ” «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya 2022
- 9.Usmonova Mavludaxon Soyibjon qizi “"Library of Programming Languages Python"Easy Delivery Methods Using Modern Information Communication Tools” European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices ISSN (E): 2938-3625 Volume 1, Issue 1, April, 2023
- 10.Usmonova Mavludakhon “Operating Principles and Applications of Blockchain Technology” European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices ISSN (E): 2938-3625 Volume 1, Issue 9, December, 2023